SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MARDONOV JOLG‘OSH ABDUMAJITOVICH

LAPLAS VA ELEKTROMAGNIT MAYDONLARINI, ULARNING SOHA CHEGARASINI BIR QISMIDA BERILGAN QIYMATLARIGA KO‘RA SOHAGA DAVOM ETTIRISH

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA – MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand–2025

UDK: 517.929

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on physical - mathematical sciences

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MARDONOV JOLG‘OSH ABDUMAJITOVICH

LAPLAS VA ELEKTROMAGNIT MAYDONLARINI, ULARNING SOHA CHEGARASINI BIR QISMIDA BERILGAN QIYMATLARIGA KO‘RA SOHAGA DAVOM ETTIRISH

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA – MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand–2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/FM790 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Sattorov Ermamat Norqulovich** fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Xalmuxamedov Alimdjan Raximovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Durdiev Durdimurod Qalandarovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «20 may» soat 10^{00} dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866)231–06–32, faks: (+99866) 235–19–38, , e-mail: patent@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 231–06–32, faks: (+99866) 235–19–38.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « 6 » 05 kuni tarqatildi.
(2025 yil « 6 » 05 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).

A.S. Soleev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

A.M. Xalxo'jayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

A.B. Xasanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi. Jahonda olib borilayotgan ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlarda matematik fizika tenglamalariga qo‘yilgan nokorrekt chegaraviy masalalarini yechish bilan bog‘liq muammolarni tadqiq qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu masalalar turli xil fizik jarayonlarni o‘rganish bilan chambarchas bog‘langan. Hozirgi kunda matematik fizikaning nokorrekt qo‘yilgan chegaraviy masalalari ko‘pgina sohalarda, jumladan, geofizika nazariyasi, gidrodinamika, signal uzatish nazariyasi, geologik qidiruv, elektrodinamika, nazariy fizika, elektronika, meteorologiya, yerning ichki qatlamlarining elektrik xossalari, zamonaviy matematik fizikaning evolyutsion tenglamalarining aniq yechimlarini izlashda muhim o‘rin tutmoqda. Nokorrekt masalalarni yechishda regulyarlashgan yechimlar oilasi korrektlik sinfi kompaktga qadar toraytirilganda turg‘un yechimni tadqiq qilishga asos sifatida xizmat qiladi. Ko‘plab mualliflarning ishlarida laplas va elektromagnit maydon tenglamalari uchun qo‘yilgan chegaraviy masalalarda chegara shartlari soha chegarasining hamma joyida beriladi. Shuning uchun ham laplas va elektromagnit maydonlarni soha chegarasi qismidagi qiymatlariga ko‘ra shu sohaga davom ettirish masalasini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda laplas va elektromagnit maydon tenglamalari sistemasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasini yechish, soha chegarasining Koshi shartlari berilmagan qismida Karleman funksiyasini qurish, qo‘yilgan nokorrekt chegaraviy masalalarning yechimi va yechim hosilasining regulyarizatsiyasi hamda shartli turg ‘unlik baholarini olishga bog‘liq muammolarni tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada laplas va elektromagnit maydon tenglamalar sistemasi uchun chegaralangan sohada soha chegarasining bir qismida berilgan qiymatiga ko‘ra yechimni shu sohaga davom ettirish, Karleman funksiyasini qurish metodi yordamida Koshi masalasi yechimi va yechim hosilasining aniq va taqribiy regulyarlashgan formulalarini hosil qilish, shartli turg‘unlik baholarini olishga oid tadqiqotlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda amaliy va fundamental fanlarning muhim yo‘nalishlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda, xususan, laplas va elektromagnit maydon tenglamalari uchun qo‘yilgan nokorrekt Koshi masalasini analitik usulda yechish va olingan natijalarni amaloytda qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2019-yilda qabul qilingan matematika ta’limi fanlarini yanada rivojlantirishga oid Prezident qaroriga binoan “Algebra va uning tatbiqlari, differensial tenglamalar va uning tatbiqlari, chiziqsiz tizimlar, dinamik tizimlar va ularning tatbiqlarini matematik modellashtirish, stoxastik tahlil, tibbiy-biologik informatika, hisoblash matematikasi[1]” fanlarining ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika faninning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilangan. Ushbu vazifani amalga

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlas, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

oshirishda, xususan, laplas va elektromagnit maydon tenglamalari uchun qo‘yilgan nokorrekt Koshi masalasining regulyarlashgan yechimini topish, shartli korrektlikka tekshirish muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-sonli “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ma’lumki, analitik funksiyalar nazariyasida Koshining integral formulasi va uning analoglari muhim rol o‘ynaydi. 1948-yilda Dj.A.Stretton va L.J.Chular birinchi bo‘lib, elektromagnit maydon tenglamalariga qo‘yilgan chegaraviy masalalarni yechishda muhim rol o‘ynaydigan Koshining integral formulasining analogi bo‘lgan, ushbu ko‘rinishdagi

$$\iint_{\partial D}\left\{(\vec{n}\cdot\vec{E})gradG+[\vec{n}\times\vec{E}]\times gradG+i\omega\mu[\vec{n}\times\vec{\mathrm{H}}]G\right\}ds_y=\begin{cases}\vec{E}(x), & x\in D,\\ 0, & x\in C\overline{D}.\end{cases}\qquad(1)$$

$$\iint_{\partial D}\left\{(\vec{n}\cdot\vec{H})gradG+[\vec{n}\times\vec{H}]\times gradG-i\omega\varepsilon[\vec{n}\times\vec{E}]G\right\}ds_y=\begin{cases}\vec{\mathrm{H}}(x), & x\in D,\\ 0, & x\in C\overline{D},\end{cases}\qquad(2)$$

formulalarni hosil qildilar.

Bu formulalar yordamida, laplas va elektromagnit maydon tenglamalariga qo‘yilgan chegaraviy masalalar ushbu mualliflar V.N. Straxov, G.M.Voskoboynikov, G.Ya.Golizdr, A.V.Sirulskiy, G.C.Moisil, N.Teodoresko, A.V.Bitsadze, G.Kolbengayer, A.Sitarova, M.N. M.S.Jdanov, M.N.Berdichevskiy, E.Vargova, N.I.Musxelishvili, F.D.Gaxov, I.N.Vekua va boshqalar tomonidan o‘rganildi. Ko‘rsatilgan mualliflarning ilmiy ishlarida chegaraviy shartlar butun soha chegarasining hamma yerida berilgan. Ushbu dissertatsiya ishida esa chegaraviy shartlar soha chegarasining ma’lum bir qismida qaraladi.

1926-yilda T.Karleman maxsus ko‘rinishdagi sohalar uchun, analitik funksiyaning soha chegarasining qismidagi qiymatiga ko‘ra, funksiyaning shu soha ichidagi qiymatini aniqlash formulasini birinchi bo‘lib hosil qildi. 1933-yilda G.M.Goluzin va V.I.Krilovlar Karleman g‘oyasini istalgan sohalar uchun umumlashtirdi. 1962-yilda M.M.Lavrent’ev kompleks o‘zgaruvchili analitik funksiyalar uchun Karleman funksiyasi tushunchasini kiritdi. Karleman funksiyasi

L.A.Ayzenberg, Sh. Yarmuxamedov, N.N.Tarxanov, T.Ishankulov, A.A.Shlapunov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida umumlashtirildi.

Laplas va elektromagnit maydon tenglamalari elliptik tipdagi tenglamalar sinfiga qarashli bo‘lib, bu tipdagi tenglama va uning sistemalari uchun qo‘yilgan nokorrekt chegaraviy masalalar nazariyasi J.Adamar, T.Karleman, G.M.Goluzin, V.I.Krilov, N.M.Gyunter, D.Kolton, R.Kress, A.S.Il’inskiy, V.V.Kravtsov, V.G.Sveshnikov, A.Djurayev, M.A.Evgrafov, E.D.Solomentsev, A.N.Tixonov, M.M.Lavrent’ev, S.N.Mergelyan, V.K.Ivanov, L.A.Ayzenberg, Sh.Yarmuxamedov, N.N.Tarxanov, A.A.Shlapunov, E.V.Arbuzov, A.L.Buxgeym, V.A.Polunin, A.P.Soldatov, T.Ishankulov, D.Q.Durdiyev, O.I.Maxmudov, Z.Malikov, I.E.Niyozov, A.B.Hasanov, F.R.Tursunov, E.N.Sattorov, E.Ya.Jabborov, D.A.Jurayev, S.I.Kabanixin va boshqa mualliflarning ilmiy ishlarida rivoj topdi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy o‘quv yurtining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universitetining № OT-F1-044-“Birinchi va ikkinchi tartibli chiziqli o‘zgarmas koeffitsiyentli elliptik sistemalar uchun Koshi masalasi” (2007-2011 yillar) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Laplas maydoni uchun Koshi tipidagi integralning Koshi integraliga aylanish masalasi, shuningdek, ixtiyoriy vektor maydon va statsionar elektromagnit maydon tenglamalari sistemasi uchun Koshi masalasi yechimi va yechim hosilasining chekli sohalarda oshkor ko‘rinishidagi regulyarizatsiyasini qurish va shartli turg‘unlik bahosini olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

analitik funksiyalar uchun Koshi tipidagi integralning Koshi integral formulasiga aylanishi haqidagi Golubev-Privalov kriteriyasining analogini laplas vektor maydon tenglamalari sistemasi holi uchun isbotlash;

ixtiyoriy vektor maydon tenglamalari sistemasi uchun uch o‘lchovli chegaralangan sohada Koshi masalasining yechimini ifodalovchi Karleman formulasini hosil qilish;

ixtiyoriy vektor maydon tenglamalari sistemasi uchun Koshi masalasi yechimining va yechim hosilasining uch o‘lchovli chegaralangan sohada regulyarlashgan taqribiy yechimini Karleman funksiyasi orqali ifodalash;

statsionar elektromagnit maydon tenglamalari sistemasi uchun Koshi masalasi yechimi va yechim hosilasining chekli sohalarda oshkor ko‘rinishidagi regulyarizatsiyasini qurish hamda M.M.Lavrent’ev metodi bo‘yicha shartli turg‘unlik bahosini olish.

Tadqiqot ob’ekti. Laplas vektor maydoni hamda ixtiyoriy vektor va statsionar elektromagnit maydon tenglamalari sistemasidan iborat.

Tadqiqot predmeti. Karleman funksiyasidan foydalanib ixtiyoriy vektor va statsionar elektromagnit maydonlar tenglamalari sistemasi uchun nokorrekt masala yechimini topishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida matematik analiz va vektor analiz, kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi, sirt potentsiali, differentsial tenglamalar hamda matematik fizika tenglamalarini yechish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

analitik funksiyalar uchun Koshi tipidagi integral Koshi integral formulasiga aylanishining zaruriy va yetarli shartlarini ifodalovchi Golubev-Privalov kriteriyasining oʻxshashi laplas vektor maydon tenglamalari sistemasi holi uchun isbotlangan;

ixtiyoriy vektor maydon tenglamalari sistemasi uchun uch oʻlchovli chegaralangan sohada Koshi masalasining yechimini ifodalovchi Karleman formulasi hosil qilingan;

ixtiyoriy vektor maydon tenglamalari sistemasi uchun Koshi masalasi yechimining va yechim hosilasining uch oʻlchovli chegaralangan sohada regulyarlashgan taqribiy yechimi Karleman funksiyasi orqali ifodalangan;

statsionar elektromagnit maydon tenglamalari sistemasi uchun Koshi masalasi yechimi va yechim hosilasining chekli sohalarda oshkor koʻrinishidagi regulyarizatsiyasi qurilgan hamda M.M.Lavrent’ev metodi boʻyicha shartli turgʻunlik bahosi olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari nokorrekt masalalarning aniq va taqribiy yechimlari geofizika, elektrodinamika va geologik qidiruv masalalarini yechishga tadbiq etilgan:

yechim hosilasining regulyarizatsiyasi va turgʻunlik bahosi elastiklik masalalarida koʻchish, kuchlanish va deformatsiyani aniqlashda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik fizika tenglamalari nazariyasi, nokorrekt masalalar nazariyasi, matematik analiz usullaridan foydalanilganligi hamda matematik mulohazalar va isbotlarning qat’iyligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati – ishning ilmiy natijalaridan laplas va statsionar elektromagnit maydonlar tenglamalari nazariyasini yanada rivojlantirish uchun foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ilmiy natijalarni geofizika, elektrodinamika, nazariy fizika, mexanika, geologik qidiruv, radiosignallar, matematik fizika masalalarini hal qilishda qoʻllash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Laplas va elektromagnit maydonlarini, ularning soha chegarasini bir qismida berilgan qiymatlariga koʻra sohaga davom ettirishga oid olingan ilmiy natijalar asosida:

elliptik tipdagi tenglamalar sistemasi uchun qoʻyilgan nokorrekt Koshi masalasini Karleman funksiyasi orqali yechish usulidan foydalanib, chegaralangan sohalarda bir jinsli Maksvell tenglamalari sistemasi uchun Koshi masalasini yechish jarayonida olingan natijalar yetakchi xorijiy jurnallarda (Differential Equations, 2021, vol.57, 86–99; Mathematical Notes, 2021, vol.110, no.3, 393-408; Russian Mathematics, 2021, vol.65, no.2, 22-38) chegaralangan va cheksiz sohalarda umumlashgan Koshi-Riman tenglamalari sistemasi uchun qoʻyilgan Koshi masalasining aniq yechimini topishda Karleman formulasini hosil qilish, regulyarlashgan yechimini topishda foydalanilgan. Ilmiy natijaning qoʻllanilishi umumlashgan Koshi-Riman tenglamalari sistemasi uchun nokorrekt masalalarni taqribiy yechish algoritmlarini tuzish imkonini bergan;

uch o‘lchovli chegaralangan sohada laplas maydoni uchun Koshi tipidagi integralni Koshi integraliga aylanishi, ixtiyoriy vektor maydon uchun Karleman formulasining o‘xshashini, statsionar elektromagnit maydon uchun soha chegarasining bir qismida berilgan qiymatiga ko‘ra Koshi masalasining shartli turg‘unlik bahosi va regulyarlashgan yechimi topishga oid nazariy natijalardan «Ikki fazali muhitning termodinamik jihatdan izchil matematik modelini o‘zaro ta'sirli dispersiv yaqinlashishda matematik modellashtirish» 18-51-41002 raqamli xorijiy ilmiy loyihada foydalanilgan (Rossiya Fanlar akademiyasining Sibir filiali Hisoblash matematikasi va matematik geofizika instituti 2023-yil 20-martdagi 15301\2-01-27- son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanishi ikki fazali muhitning termodinamik jihatdan izchil matematik modelini o‘zaro ta’sirli dispersiv yaqinlashishiga doir nokorrekt masalalarni yechish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 9 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 18 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalarini himoya qilishda tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 2 ta xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 119 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishiningi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy–tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Uch o‘lchovli geofizik maydonlar nazariyasidan ba’zi bir asosiy ma’lumotlar”** deb nomlangan birinchi bobida ishning asosiy natijalarini bayon etish uchun kerak bo‘lgan zarur ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bobning birinchi paragrafida maydonlar nazariyasining ba’zi bir asosiy elementlari keltirilgan.

Ikkinchi paragrafida, chegarasi ∂D silliq sirtdan iborat bo‘lgan $D\,(D \subset R^3)$ chegaralangan bir bog‘lamli sohada, ushbu

$$div\vec{F}(y) = 0\,, \quad rot\vec{F}(y) = 0, \quad y \in D \tag{3}$$

laplas vektor maydoni uchun Koshi integral formulasining uch o‘lchovli analogi (o‘xshashi) keltirilgan, ya’ni

$$-\frac{1}{4\pi}\iint_{\partial D}\left\{(\vec{n}\cdot\vec{F})grad\,\frac{1}{|y-x|}+[\vec{n}\times\vec{F}]\times grad\,\frac{1}{|y-x|}\right\}ds_y=\begin{cases}\vec{F}(x), & x\in D,\\ 0, & x\in C\overline{D}.\end{cases}\qquad(4)$$

bunda $\vec{n}$ - ∂D sirtgning y nuqtasiga o‘tkazilgan tashqi birlik normal.

Uchinchi paragrafida, chegarasi ∂D silliq sirtdan iborat bo‘lgan, $D\,(D\subset R^3)$ sohada, ushbu

$$div\vec{F}(y)=\vartheta(y)\ ,\quad rot\vec{F}(y)=\vec{a}(y),\quad y\in D \qquad(5)$$

tenglamalar sistemasi uchun Pompey formulasining uch o‘lchovli analogi (o‘xshashi) keltirilgan, ya’ni

$$\vec{F}(x)=-\frac{1}{4\pi}\iint_{\partial D}\left\{(\vec{n}\cdot\vec{F})grad\,\frac{1}{|y-x|}+[\vec{n}\times\vec{F}]\times grad\,\frac{1}{|y-x|}\right\}ds_y+$$

$$+\frac{1}{4\pi}\iiint_{D}\vartheta(y)\cdot grad\,\frac{1}{|y-x|}dv+\frac{1}{4\pi}\iiint_{D}\vec{a}(y)\times grad\,\frac{1}{|y-x|}dv,\qquad x\in D.\qquad(6)$$

To‘rtinchi paragrafida, chegarasi ∂D silliq sirtdan iborat bo‘lgan $D\,(D\subset R^3)$ sohada bir jinsli statsionar elektromagnit maydon, ya’ni

$$rot\vec{\mathrm{E}}=i\omega\mu\vec{\mathrm{H}},\quad rot\,\vec{\mathrm{H}}=-i\omega\varepsilon\vec{\mathrm{E}},\qquad(7)$$

ko‘rinishidagi tenglamalar sistemasi uchun Koshi integral formulasining analogi bo‘lgan Stretton-Chu integral formulasi keltirilgan:

$$\iint_{\partial D}\left\{(\vec{n}\cdot\vec{E})gradG+[\vec{n}\times\vec{E}]\times gradG+i\omega\mu[\vec{n}\times\vec{\mathrm{H}}]G\right\}ds_y=\begin{cases}\vec{E}(x), & x\in D,\\ 0, & x\in C\overline{D}.\end{cases}\qquad(8)$$

$$\iint_{\partial D}\left\{(\vec{n}\cdot\vec{H})gradG+[\vec{n}\times\vec{H}]\times gradG-i\omega\varepsilon[\vec{n}\times\vec{E}]G\right\}ds_y=\begin{cases}\vec{\mathrm{H}}(x), & x\in D,\\ 0, & x\in C\overline{D},\end{cases}\qquad(9)$$

bu yerda $G=\dfrac{1}{4\pi}\dfrac{e^{i\lambda|y-x|}}{|y-x|}$, $\lambda=\omega\sqrt{\varepsilon\mu}$ - Gel’mgolts tenglamasining fundamental yechimi, $\vec{n}$ - ∂D sirtning y nuqtasiga o‘tkazilgan tashqi birlik normal.

Dissertatsiyaning **“Uch o‘lchovli fazoda laplas maydonini davom ettirish”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobi, uchta paragrafdan iborat bo‘lib, unda laplas vektor maydoni uchun Koshi tipidagi integralning Koshi integraliga aylanishi masalasi, shuningdek, Karleman funksiyasi yordamida uch o‘lchovli chegaralangan sohada ixtiyoriy vektor maydon tenglamalari sistemasi uchun Koshi masalasi yechimining va yechim hosilasining oshkor ko‘rinishidagi regulyarizatsiyasi hamda regulyarlashgan taqribiy yechimi keltirilgan.

Birinchi paragrafda, laplas vektor maydoni uchun Koshi tipidagi integralni Koshi integraliga aylanishining zaruriy va yetarli shartlarini ifodalovchi teoremalar isbotlangan.

Aytaylik, D, $(D\subset R^3)$ chegaralangan sohada (3) laplas vektor maydoni berilgan bo‘lsin. D sohaning S sirt bilan chegaralangan ichki qismini D_i bilan, uning tashi qismi cheksiz sohani D_e, ya’ni $D_e = R^3 \setminus \overline{D}_i$ bilan belgilaymiz. S sirtda $\vec{f}(y)$ uzluksiz vektor-funksiya berilgan bo‘lsin. U holda quyidagi

$$\vec{\mathrm{K}}(x) = -\frac{1}{4\pi}\iint_S \left((\vec{n}\cdot\vec{f})grad\,\frac{1}{|y-x|} + [\vec{n}\times\vec{f}]\times grad\,\frac{1}{|y-x|} \right) ds_y \tag{10}$$

ifodaga (3) sistema uchun Koshi tipidagi integral deyiladi. (10) integralning D_i va D_e sohalardagi qiymatlarini mos ravishda $\vec{\mathrm{K}}_i(x)$ va $\vec{\mathrm{K}}_e(x)$ bilan belgilaymiz, ya’ni

$$\vec{K}(x) = \begin{cases} \vec{K}_i(x), \; x\in D_i, \\ \vec{K}_e(x), \; x\in D_e. \end{cases} \tag{11}$$

1-masala. (11) ko‘rinishidagi Koshi tipidagi integral qanday shartlar bajarilganda $\vec{\mathrm{K}}_i(x)$ funksiya uchun Koshining integral formulasiga aylanadi.

1-teorema. Aytaylik, S sirt – sferaga gomeomorf bo‘lgan yopiq Lyapunov sirtidan iborat bo‘lib, bu sirtda berilgan $\vec{f}(y)$ vektor-funksiya Gyolder shartini qanoatlantirsin. U holda, D_i sohada Koshi tipidagi integralning Koshi integraliga aylanishi uchun, D_e sohada $\vec{K}_e(x)\equiv 0$ munosabatning bajarilishi zarur va yetarli.

2-teorema. 1-teorema shartlari bajarilsin. U holda, (3) sistema uchun Koshi tipidagi integralning Koshi integraliga aylanishi uchun x_1, x_2, x_3 o‘zgaruvchili barcha $H(x)$ garmonik ko‘phadlar uchun

$$\iint_S \left\{ (\vec{n}\cdot\vec{f})gradH(y) + (\vec{n}\times\vec{f})\times gradH(y) \right\} ds_y = 0$$

tenglikning bajarilishi zarur va yetarli.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida Karleman funksiyasi yordamida uch o‘lchovli chegaralangan sohada ixtiyoriy vektor maydon tenglamalari sistemasi uchun Koshi masalasi yechimining va yechim hosilasining regulyarizatsiyasi oshkor ko‘rinishda qurilgan.

Faraz qilaylik, $D\subset R^3$ – bir bog‘lamli chegaralangan soha bo‘lib, uning chegarasi $T:\; y_3 = 0$ tekislikning chegaralangan qismi, hamda $y_3 > 0$ yarim fazoda joylashgan S silliq sirtdan iborat bo‘lsin, ya’ni $\partial D = S\cup T$.

$\mathrm{A}(D)$ bilan $\overline{D} = D\cup\partial D$ da uzluksiz va (5) sistemani qanoatlantiruvchi D sohadagi vektor-funksiyalar sinfini belgilaymiz. Endi shu D sohada Koshi masalasini qaraymiz.

2-masala (Koshi masalasi). Faraz qilamiz $\vec{F}(y)\in \mathrm{A}(D)$ va

$$\vec{F}(y)\Big|_S = \vec{f}(y), \quad y\in S\,, \tag{12}$$

bu yerda $\vec{f}(y)$ – funksiya soha chegarasining S qismida berilgan uzluksiz funksiya. S sirtda $\vec{f}(y)$ funksiyaning berilgan qiymatiga ko‘ra D sohada $\vec{F}(y)$ vektor funksiyani tiklash talab qilinadi.

Bu masala yechimni topishda Sh. Yarmuhamedov tomonidan Laplas tenglamasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasini yechishda qurilgan Karleman funksiyasidan foydalanamiz.

Aytaylik $\sigma > 0$ bo‘lsin. $\Phi_\sigma(y,x)$ funksiyani[2] uch o‘lchovli fazoda quyidagicha aniqlaymiz:

$$\varPhi_\sigma(y,x) = -\frac{e^{-\sigma x_3^2}}{2\pi^2}\int_0^\infty \operatorname{Im}\left[\frac{e^{\sigma w^2}}{w-x_3}\right]\frac{du}{\sqrt{u^2+\alpha^2}}, \quad w = i\sqrt{u^2+\alpha^2}+y_3, \qquad (13)$$

$$y' = (y_1, y_2),\ x' = (x_1, x_2),\quad \alpha = \left|y' - x'\right|, \alpha^2 = (y_1-x_1)^2 + (y_2-x_2)^2.$$

Sh. Yarmuxamedov tomonidan (13) tenglik orqali aniqlangan $\Phi_\sigma(y,x)$ funksiya $\sigma > 0$ bo‘lganda quyidagi

$$\Phi_\sigma(y,x) = -\frac{1}{4\pi r} + g_\sigma(y,x) \qquad (14)$$

ko‘rinishda tasvirlanadi, bunda $r = |y-x|$, $g_\sigma(y,x)$ - funksiya y bo‘yicha R^3 fazoda garmonik funksiya. U holda, (6) formula quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\vec{F}(x) = \iint_{\partial D}\left\{(\vec{n}\cdot\vec{f}(y))\cdot grad\Phi_\sigma(y,x) + [\vec{n}\times\vec{f}(y)]\times grad\Phi_\sigma(y,x)\right\}ds_y -$$

$$-\iiint_D \vartheta(y)\cdot grad\Phi_\sigma(y,x)dv - \iiint_D [\vec{a}(y)\times grad\Phi_\sigma(y,x)]dv. \qquad (15)$$

Quyidagi belgilashni kiritamiz

$$\vec{F}_\sigma(x) = \iint_S\left\{(\vec{n}\cdot\vec{f}(y))\cdot grad\Phi_\sigma(y,x) + [\vec{n}\times\vec{f}(y)]\times grad\Phi_\sigma(y,x)\right\}ds_y -$$

$$-\iiint_D \vartheta(y)\cdot grad\Phi_\sigma(y,x)dv - \iiint_D [\vec{a}(y)\times grad\Phi_\sigma(y,x)]dv,\quad x\in D, \qquad (16)$$

3-teorema. Agar $\vec{F}(y)\in \mathrm{A}(D)$ bo‘lib, soha chegarasining S qismida (12) shartni, soha chegarasi ∂D - ning T qismida esa

$$\left|\vec{F}(y)\right| \le M,\ y\in T, \qquad (17)$$

shartni qanoatlantirsa, u holda barcha $x\in D$ va $\sigma > 0$ uchun quyidagi

$$\left|\vec{F}(x) - \vec{F}_\sigma(x)\right| \le \mathrm{M}C_1(\sigma, x_3)\, e^{-\sigma x_3^2}, \qquad (18)$$

$$\left|\frac{\partial\vec{F}(x)}{\partial x_i} - \frac{\partial\vec{F}_\sigma(x)}{\partial x_i}\right| \le \mathrm{M}\Delta_i(\sigma, x_3)e^{-\sigma x_3^2},\ i = 1,2,3, \qquad (19)$$

tengsizliklar o‘rinli bo‘ladi. Bu yerda

---

[2] (13) tenglik bilan aniqlangan $\Phi_\sigma(y,x)$ funksiyani birinchi bo‘lib Sh.Yarmuxamedov qurgan.

$$C_1(\sigma,x_3)=\frac{3}{\pi}+\frac{3}{2\sqrt{\pi\sigma}x_3}, \tag{20}$$

$$\Delta_1(\sigma,x_3)=\frac{40\sqrt{\sigma}}{\sqrt{\pi}}+\frac{2}{\sqrt{\pi\sigma}}+\frac{21}{2\sqrt{\pi\sigma}x_3^2}+\frac{2\sqrt{\sigma}}{\sqrt{\pi}x_3^2},\ \ \Delta_2(\sigma,x_3)=\Delta_1(\sigma,x_3), \tag{21}$$

$$\Delta_3(\sigma,x_3)=\frac{8\sigma x_3+2\sqrt{\sigma}}{\pi}+\frac{24\sqrt{\sigma}+16\sigma\sqrt{\sigma}x_3^2}{\sqrt{\pi}}+\frac{8x_3^4+16}{\pi\sigma x_3^3}+\frac{54x_3+32}{27\sqrt{\pi\sigma}x_3^3}. \tag{22}$$

Bu teoremadan quyidagi natijalar kelib chiqadi.

1-natija. Har bir $x\in D$ uchun ushbu

$$\lim_{\sigma\to\infty}\overrightarrow{F_\sigma}(x)=\vec{F}(x),\quad \lim_{\sigma\to\infty}\frac{\partial\overrightarrow{F_\sigma}(x)}{\partial x_i}=\frac{\partial\vec{F}(x)}{\partial x_i},\ i=1,2,3$$

limitik munosabatlar o‘rinli bo‘ladi.

Quidagi to‘plamni kiritamiz:

$$\overline{D}_\varepsilon=\left\{x\in D,\ \varepsilon\le x_3<a,\ a=\max_T h(x_1,x_2),\ 0<\varepsilon<a\right\}.$$

Ko‘rish mumkinki $\overline{D}_\varepsilon\subset D$ to‘plam kompakt to‘plamdir.

2-natija. Agar $x\in\overline{D}_\varepsilon$ bo‘lsa, u holda $\sigma\to\infty$ da $\left\{\overrightarrow{F_\sigma}(x)\right\}$ va $\left\{\frac{\partial\overrightarrow{F_\sigma}(x)}{\partial x_i}\right\}$ funksiyalar oilasi tekis yaqinlashadi, ya’ni

$$\overrightarrow{F_\sigma}(x)\rightrightarrows\vec{F}(x),\quad \frac{\partial\overrightarrow{F_\sigma}(x)}{\partial x_i}\rightrightarrows\frac{\partial\vec{F}(x)}{\partial x_i},\ i=1,2,3.$$

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida Karleman funksiyasi yordamida uch o‘lchovli chegaralangan sohada ixtiyoriy (5) vektor maydon tenglamalari sistemasi uchun Koshi masalasi yechimining va yechim hosilasining regulyarlashgan taqribiy yechimi olingan.

Faraz qilamiz, S sirt $y_3=h(y_1,y_2),\ (y_1,y_2)\in\mathrm{T}$ tenglama orqali berilgan bo‘lib, $y_3=h(y_1,y_2)$ shunday bir qiymatli funksiya bo‘lsinki, S sirt Lyapunov sirti bo‘lsin. Shu o‘rinda

$$a=\max_{\mathrm{T}}h(y_1,y_2)\quad\text{va}\quad b=\max_{\mathrm{T}}\sqrt{1+h_{y_1}^{'2}(y_1,y_2)+h_{y_2}^{'2}(y_1,y_2)}$$

deb belgilaymiz.

S sirtda $\vec{f}(y)$ vektor-funksiyaning o‘rniga uning $C(S)$ sinfga tegishli bo‘lgan $\vec{f}_\delta(y)$ taqribiy qiymati $0<\delta\le\mathrm{M}e^{-\sigma a^2}$ xatolik orqali berilgan bo‘lsin, ya’ni

$$\max_S\left|\vec{f}(y)-\vec{f}_\delta(y)\right|<\delta. \tag{23}$$

Quyidagi belgilashni kiritamiz

$$\vec{F}_{\sigma(\delta)}(x)=-\iint_S\left\{(\vec{n}\cdot\vec{f}_\delta(y))\cdot grad\Phi_\sigma(y,x)+[\vec{n}\times\vec{f}_\delta(y)]\times grad\Phi_\sigma(y,x)\right\}ds_y-$$

$$-\iiint_D \vartheta(y)\cdot grad\Phi_\sigma(y,x)dv-\iiint_D[\vec{a}(y)\times grad\Phi_\sigma(y,x)]dv\ . \qquad (24)$$

4-teorema. Agar $\vec{F}(y)\in \mathrm{A}(D)$ bo‘lib, soha chegarasining S qismida (12) shartni va T qismida esa (17) shartni qanoatlantirsa, u holda barcha $x\in D$ va $\sigma>0$ uchun quyidagi

$$\left|\vec{F}(x)-\vec{F}_{\sigma(\delta)}(x)\right|\le 2C_2(\sigma,x_3)\ \mathrm{M}^{1-\frac{x_3^2}{a^2}}\delta^{\frac{x_3^2}{a^2}}, \qquad (25)$$

$$\left|\frac{\partial\vec{F}(x)}{\partial x_i}-\frac{\partial\vec{F}_{\sigma(\delta)}(x)}{\partial x_i}\right|\le 2\varphi_i(\sigma,x_3)\mathrm{M}^{1-\frac{x_3^2}{a^2}}\delta^{\frac{x_3^2}{a^2}},\ i=1,2,3, \qquad (26)$$

tengsizliklar o‘rinli bo‘ladi. Bunda

$$\sigma(\delta)=\frac{1}{a^2}\ln\frac{M}{\delta},\ \delta<M, \qquad (27)$$

$C_2(\sigma,x_3)=\max\left(C_1(\sigma,x_3),q(\sigma,x_3)\right),\ C_1(\sigma,x_3)-\ (20)$ tenglik bilan aniqlanadi,

$$q(\sigma,x_3)=\frac{22\sqrt{\pi\sigma}ab+4\sigma ab}{\pi}+\frac{7\sqrt{\pi}b+8\sqrt{\pi}\sigma a^2b+8\sqrt{\sigma}ab}{2\pi\sqrt{\sigma}(a-x_3)} \qquad (28)$$

$\varphi_1(\sigma,x_3)=\max(\Delta_1(\sigma,x_3),\alpha(\sigma,x_3)),\ \Delta_1(\sigma,x_3)-\ (21)$ tenglik bilan aniqlanadi,

$$\alpha(\sigma,x_3)=\sqrt{\sigma}\left(\frac{(24(a+x_3)+32a+61)\,a\,b+24b}{\sqrt{\pi}}+\frac{42a\,b\,(a+x_3)}{\sqrt{\pi}(a-x_3)^2}\right)+$$

$$+\sigma\frac{88ab+16\sigma a^3b+20a^2b+32a^3b}{\pi}+\sigma\sqrt{\sigma}\,\frac{48ab+124a^2b}{\sqrt{\pi}}+$$

$$+\frac{\sigma(5\pi ab+36ab+8b)+16\sigma^2ab+4\pi ab}{4\sqrt{\pi\sigma}\,(a-x_3)}+$$

$$+\frac{26b+110\sigma ab}{\sqrt{\pi\sigma}(a-x_3)^2}+\frac{8\sigma^3ab+2b}{\sqrt{\pi\sigma}}+\frac{28ab}{\pi}. \qquad (29)$$

$\varphi_2(\sigma,x_3)=\max(\Delta_2(\sigma,x_3),\alpha(\sigma,x_3)),\ \Delta_2(\sigma,x_3)\ va\ \alpha(\sigma,x_3)$ - lar mos ravishda (21) va (29) tengliklar bilan aniqlanadi,

$\varphi_3(\sigma,x_3)=\max(\Delta_3(\sigma,x_3),\,p(\sigma,x_3)),\ \Delta_3(\sigma,x_3)-\left(22\right)$ tenglik bilan aniqlanadi va

$$p(\sigma,x_3)=\sqrt{\sigma}\left(\frac{28b+10ab+4abx_3}{\sqrt{\pi}}+\frac{16ab+16b}{\sqrt{\pi}(a-x_3)}+\frac{36ab+8\pi ab+2\pi\sqrt{\pi}ab(a+x_3)}{\sqrt{\pi}(a-x_3)^2}\right)+$$

$$+\sigma\sqrt{\sigma}\left(\frac{24a^2b+32ab+40abx_3}{\sqrt{\pi}}+\frac{8abx_3}{\sqrt{\pi}(a-x_3)}\right)+\frac{\sigma(40ab+8a^2bx_3)}{\pi}+$$

$$+\frac{13b+4\sigma ab}{\sqrt{\pi\sigma}(a-x_3)^2}+\frac{ab}{\sqrt{\pi\sigma}(a-x_3)}.$$

3-natija. Har bir $x\in D$ uchun ushbu

$$\vec{F}(x)=\lim_{\delta\to 0}\vec{F}_{\sigma(\delta)}(x), \qquad \frac{\partial\vec{F}(x)}{\partial x_i}=\lim_{\delta\to 0}\frac{\partial\vec{F}_{\sigma(\delta)}(x)}{\partial x_i},\ i=1,2,3$$

limitik munosabatlar o‘rinli bo‘ladi.

Quidagi to‘plamni kiritamiz:

$$\overline{D}_\varepsilon=\left\{x\in D,\ \varepsilon\le x_3<a,\ a=\max_T h(x_1,x_2),\ 0<\varepsilon<a\right\}.$$

Ko‘rish mumkinki $\overline{D}_\varepsilon\subset D$ to‘plam kompakt to‘plamdir.

4-natija. Agar $x\in\overline{D}_\varepsilon$ bo‘lsa, u holda $\delta\to 0$ da $\left\{\vec{F}_{\sigma(\delta)}(x)\right\}$ va $\left\{\frac{\partial\vec{F}_{\sigma(\delta)}(x)}{\partial x_i}\right\}$ funksiyalar oilasi tekis yaqinlashadi, ya’ni

$$\vec{F}_{\sigma(\delta)}(x)\Rightarrow\vec{F}(x), \qquad \frac{\partial\vec{F}_{\sigma(\delta)}(x)}{\partial x_i}\Rightarrow\frac{\partial\vec{F}(x)}{\partial x_i},\ i=1,2,3.$$

Dissertatsiyaning **“Uch o‘lchovli chegaralangan sohada elektromagnit maydon tenglamalari sistemasi uchun Koshi masalasi”** deb nomlanuvchi uchinchi bobida uch o‘lchovli chegaralangan sohada statsionar elektromagnit maydon tenglamalari sistemasi uchun Koshi masalasi yechimining va yechim hosilasining regulyarizatsiyasi hamda shatli turg‘unlik bahosi keltirilgan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida Karleman funksiyasi yordamida uch o‘lchovli chegaralangan sohada statsionar elektromagnit maydon tenglamalari sistemasi uchun Koshi masalasi yechimining va yechim hosilasining regulyarizatsiyasi oshkor ko‘rinishda qurilgan. Ikkinchi paragrafida esa yechim va yechim hosilasining shatli turg‘unlik bahosi olingan.

Bir bog‘lamli chegaralangan $D\subset R^3$ $(\partial D=S\cup T)$ sohada bir jinsli statsionar elekrtomagnit maydon tenglamalari sistemasini qaraymiz, ya’ni

$$\begin{cases} rot\,\vec{E}=i\omega\mu\,\vec{H}, \\ rot\,\vec{H}=-i\omega\varepsilon\,\vec{E}, \end{cases} \tag{30}$$

bu yerda $\vec{E}(y)=\left(E_1(y),E_2(y),E_3(y)\right)$ va $\vec{H}(y)=\left(H_1(y),H_2(y),H_3(y)\right)$ vektor-funksiyalar, ε va μ elektromagnit o‘zgarmaslari, ω - maydon o‘zgarish chastotasi, i- mavhum birlik.

3-masala (Koshi masalasi). (30) sistema yechimining chegaraviy qiymati soha chegarasining S qismida berilgan bo‘lsin:

$$\vec{\mathrm{E}}(y)\Big|_S=\vec{f}(y),\ \ \vec{\mathrm{H}}(y)\Big|_S=\vec{g}(y),\ \ y\in S, \tag{31}$$

bu yerda $\vec{f}(y),\ \vec{g}(y)-$ S sirtida berilgan uzluksiz vektor – funksiyalar.

(31) shartga ko‘ra D sohada $\vec{E}(y),\ \vec{\mathrm{H}}(y)-$funksiyalarni tiklash talab qilinadi. Bu masala yechimini topishda Sh. Yarmuhamedov tomonidan Gel’mgol’ts

tenglamasi uchun Koshi masalasini yechishda qurilgan Karleman funksiyasidan foydalanamiz.

Aytaylik $\sigma>0$ bo‘lsin. $\Phi_\sigma(y,x)$ funksiyani $y\neq x$ bo‘lganda uch o‘lchovli fazoda quyidagicha aniqlaymiz:

$$\Phi_\sigma(y,x)=-\frac{e^{-\sigma x_3^2}}{2\pi^2}\int_0^\infty \mathrm{Im}\left[\frac{e^{\sigma w^2}}{w-x_3}\right]\frac{\cos(\lambda u)du}{\sqrt{u^2+\alpha^2}}, \tag{32}$$

bunda $w=\iota\sqrt{u^2+\alpha^2}+y_3,\ y'=(y_1,y_2),\ x'=(x_1,x_2),\ \alpha=\left|y'-x'\right|,\ \lambda=\omega\sqrt{\mu\varepsilon}.$

SH. Yarmuxamedov tomonidan (32) tenglik orqali aniqlangan $\Phi_\sigma(y,x)$ funksiya $\sigma>0$ bo‘lganda quyidagi

$$\Phi_\sigma(y,x)=\frac{e^{i\lambda r}}{4\pi r}+g_\sigma(y,x) \tag{33}$$

ko‘rinishda tasvirlanadi, bunda $r=|y-x|$, $g_\sigma(y,x)$ – funksiya y,x ning barcha qiymatlarida aniqlan va y o‘zgaruvchisi bo‘yicha Gel’mgolts tenglamasini qanoatlantiradigan funksiya, ya’ni

$$\Delta\left(\frac{\partial}{\partial y}\right)g_\sigma(y,x)+\lambda^2 g_\sigma(y,x)=0,\ y\in D\,.$$

(31) tenglik bilan ifodalanuvchi Koshi masalasining berilganlarini (8) va (9) formulalarga qo‘yamiz va quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$\vec{E}_\sigma(x)=\iint_S\Big\{\left(\vec{n}\cdot\vec{f}\right)grad\ \Phi_\sigma(y,x)+\left[\vec{n}\times\vec{f}\right]\times grad\ \Phi_\sigma(y,x)+$$
